Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

ARAB XALIFALIGINING O‘RTA OSIYODAGI TASHQI SIYOSATI VA SAMARQAND SHARTNOMASINING TARIXIY AHAMIYATI

Eshmamatova Oysanam

SHDPI Tarix yo’nalishi 1-kurs talabasi

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20350796

Annotatsiya: Ushbu maqolada Arab xalifaligining O’rta Osiyoga olib borgan bosqinchilib yurishlari davrida O’rta Osiyoning ijtimoiy hayoti,islom dinining tarqalishi ,Arablar tomonidan Samarqand egallanishi va Samarqand shartnomasi haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: Arab xalifaligi,jizya,xiroj,Samarqand shartnomasi

Annotation: This article discusses the social life of Central Asia, the spread of Islam, the occupation of Samarkand by the Arabs, and the Treaty of Samarkand during the Arab Caliphate's invasions of Central Asia.

Key words: Arab caliphate, jizya, khiroj, Samarkand Treaty

Абстрактный: В данной статье рассматривается общественная жизнь Центральной Азии, распространение ислама, оккупация Самарканда арабами и Самаркандский договор во время вторжений Арабского халифата в Среднюю Азию.

Ключевые слова: Арабский халифат, джизья, хиродж, Самаркандский договор.

Kirish: Jahon tarixida ulkan iz qoldirgan davlatlardan biri bu arab xalifaligidir arab xalifaligi davri O‘rta Osiyo Eron, Afg‘oniston yaqin va o‘rta sharq shimoliy Hindiston piriney yarim oroli va shimoliy Afrika xalqlarining ijtimoiy iqtisodiy madaniy taraqqiyotiga oziga xos yuksalish davrini belgilab berdi arab istilolchilari xususida shubhasiz eng asosiy malumotlarni arab musulmon mualliflari berib o‘tishgan shu xususida jumladan al vazirining "Faruh al buldon"(mamlakatning Fath etilishi),al tabiatining "tarixi Rasuli va mulk"(payg‘ambarlar va podsholar tarixi)asarlari alohida ahamiyat kasb etadi.Arab istilochilari musulmon g‘oyalarini tarqatish bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham o‘zgartirdi. Ularning kelishi bilan yangi madaniy ta’sirlar paydo bo‘ldi.Arab xalifaligi davlatining kengayishi davom etdi.[1]Arablaming 0‘rta Osiyoga dastlabki yurishlari Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligida 651-yilda Marvni ishg‘ol etish bilan boshlandi. Arablar Amudaryodan shimolda joylashgan yerlarga «Movarounnahr», ya’ni, «daryoning ortidagi yerlar», deb nom berishadi. 652-yilda arablar Balx shahri va Chag‘aniyonni egallashga muvaffaq boidilar. Bu esa ilk bor Movarounnahmi egallash edi. 654-yilda Sug‘ddagi Maymurg’ qal’asiga arablaming birinchi hujumi boldi. 657-yilda arablar Chog‘aniyonga qayta yurish qilib, eftaliylarga kuchli zarbalar berdilar.704-yilda Xuroson taxtiga Qutayba Ibn Muslim o'tiradi va Xurosonni batamom o'ziga bo'ysundiradi. Ana shu davrdan e'tiboran arab bosqinchilari tomonidan Movarounnahmi zabt etishning ikkinchi davri boshlanadi.Qutayba ibn Muslim shimoliy sharq tomon g‘olibona bosqinchilik yurishlarini davom ettirdi. U 710-yilda Shuman, Nasaf, Keshni zabt etadi. 711-yilda aka-uka Chag‘on va Hurzod janjalidan foydalanib Xorazmni bosib oladi. Shundan so‘ng Qutayba endi asosiy zarbani kuchli raqib, lekin laqma siyosatdon Sug‘d hokimi Tarxunga qarshi qaratadi.O‘rtada tuzilgan sulh shartnomasiga qaramasdan; o‘zaro kelishuv asosida Samarqanddagi masjid qurilishini tezlashtirish bahonasida shaharga g‘isht teruvchilar o‘miga 4000 qurollangan arab kiritiladi. Shahar talanib, aholi xarob qilinadi. Tarxun ham qatl etiladi. Sosoniylaming eng so‘nggisi Yazdigaming qizi ham asir olinadi va u xalifa Validga yuboriladi. Samarqandda qo’lga olingan oltin butlar va ulaming jihozlari 50 ming misqolni tashkil etadi. Samarqandni egallashda 300 ta devorbuzar moslamalar ishlatilib, arablar Samarqandni batamom vayron etadilar. Nihoyat Samarqandning yangi hokimi G’urak(709-738) bilan Qutayba o‘rtasida sulh bitimi imzolanib, bu

bitimga ko‘ra u arablarga yiliga 200 ming dirham tovon toiashi kerak boiadi. Yana arablarga 30 ming sog’lom kishini qul o‘mida berish sharti ham bor edi. Shartnomaga asosan shahar markazi arablarga bo‘shatib beriladi. [1]

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi:

Abu Hasan al-Balazuriy VIII asrning 80-yillaridagi arablarning yurishlari haqida yozar ekan, Movarounnahr hududida o‘troq aholi bilan birga Choch yaqinida, Yettisuvning Talas va Chuv vodiysida yashovchi ko‘chmanchi turklar, Ili daryosi havzasida va Irtishdan g‘arbda tomonida yashovchi tunguslar, Farg‘ona va Toharistonda yashovchi qarluqlar ham arablar qarshi kurashdilar. Zarafshon vodiysida, Buxoro bilan Samarqand oralig‘idagi hududda yashagan turkiy xalqlar ayniqsa katta kuch edi.(3)

Q.Usmonov,M.Sodiqov,S.Burxonova “O’zbekiston tarixi “kitobida arablarning O’rta Osiyoga harbiy yurishlari,Qutayba ibn Muslimning Samarqandga qilgan yurishlari va samarqand aholisining arablarga qarshi kurashlarihaqida ma’lumot keltirilib o’tgan.[2]O‘rta asr tarixchi olimi Abu Ja’far at-Tabariyning yozishicha, Movarounnahr hududida uyushgan holda arablar qarshi kurash olib borishga harakat qilingan haqida ma’lumotlar keltirilib o’tilgan.

Muhokama va natijalar:

Arablar istilochilar sifatida bu hududda mahalliy aholiga nisbatan mislsiz zulm va zo'ravonlik o'tkazdilar. Xalq tomonidan asrlar davomida yaratilgan noyob moddiy va ma’naviy boyliklar, osori atiqalar talandi, yakson qilindi. Mahalliy yozuvlarda bitilgan son-sanoqsiz nodir kitoblar, qo'l yozmalar yondirildi. Zardushtiylik, buddizm dinining ko'plab ibodatxonalari, muqaddas qadamjolari kunpayakun etildi.Ulug' bobokalonimiz Beruniy o'zining « O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida achchiq alam bilan ta’kidlaganidek, arablar mahalliy din, san’at, adabiyot namoyandalarini, olimlami o'ldirdilar, asarlarini esa olovda yondirdilar. So'ngra ular ajdodlarimizning bebaho boyligi hisoblangan mahalliy yozuvlar, tarixiyhujjatlarni yo'q qildilar. Musulmonchilik diniga, islom aqidalariga zid keladigan jamiki narsalar ularning nazarida g'ayritabiiy hol hisoblanib, ayovsiz yo'q qilindi. Bularning o'rniga arablar aholidan olingan mo'may daromadlar, to'lovlar evaziga hashamatli, serviqor masjid-u madrasalar, xonaqolar, maqbaralar barpo etib odamlarni ularga da’vat etdilar. Yurtimiz jilovini qo'lga olgan arab hukmdorlari xalqqa zulm-u sitamni kuchaytirish maqsadida turli xil soliqlar joriy qildi.[3]

Xulosa. Xulosa qilib aytgandaArablarning O‘rta Osiyoga bostirib kirishi tarixiy jihatdan muhim voqea bo‘lib, mintaqaning siyosiy va madaniy hayotiga katta ta'sir ko‘rsatdi. VIII asrda Arablarning O‘rta Osiyoga bostirib kirishi islom dinining tarqalishiga va Sharqning boshqa hududlaridagi siyosiy strukturani o'zgartirishga olib keldi. Bu davrda, ayniqsa,O‘rta Osiyo hududida joylashgan turk va o‘zbek xalqlarining madaniyati, diniy e'tiqodi, va ijtimoiy tuzilmalari arablarning ta'siri ostida rivojlandi.Bostirib kirishning natijasida, bu hududda islom dini keng tarqalib, uning ta'siri nafaqat diniy, balki siyosiy, iqtisodiy va ilmiy sohalarda ham o'z aksini topdi. Shuningdek, arablar tomonidan olib kelingan ilm-fan va madaniyat yangi sharoitda o'zaro uyg'unlashib, yangi ilmiy va madaniy oqimlarning rivojlanishiga zamin yaratdi. Shu bilan birga, arablarning O‘rta Osiyoga kirib kelishi, o'z navbatida, mahalliy xalqlarning o'z mustaqil davlatchilik va madaniyatini saqlashga harakat qilishlariga ham turtki bo'ldi.Umuman olganda, arablarning O‘rta Osiyoga bostirib kirishi ushbu mintaqada nafaqat islomning tarqalishini, balki mintaqaning tarixiy rivojlanishida muhim bosqichni tashkil etgan voqea bo'ldi.

Adabiyotlar tahlili:

1. Rustambek SHamsiddinov,SHodi Karimov “Vatan tarixi”««SHARQ NASHRIYOT- MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT — 2010
2. O’zbekiston tarixi” Toshkent -2003

3. Q.Usmonov,M.Sodiqov,S.Burxonova “O’zbekiston tarixi” Toshkent-2016
4. X.Boboyev” O’zbek davlatchiligi tarixi”2004-yil
5. Eshov “O’zbek davlatchiligi tarixi” 2009-yil
6. Narshaxiy “Buxoro tarixi” Kamalak-2009